



ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI

Fayziev Oybek Raximovich¹

Abdug'anieva Sevara Abduxamidovna²

Yo'ldoshboev Asadbek Hojiakbar o'g'li³

¹ Toshkent davlat agrar universiteti, "Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d (PhD) ² Toshkent davlat agrar universiteti magistranti, ³ Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

fayziev.oybek@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6660487>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 15th June 2022

KEY WORDS

Natijada fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy sub'ektlarga aylandi.

ABSTRACT

Mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va aholining munosib hayot kechirishini ta'minlashda fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ularning yer maydonlaridan samarali foydalanish masalasi alohida o'rin tutadi.

Mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va aholining munosib hayot kechirishini ta'minlashda fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ularning yer maydonlaridan samarali foydalanish masalasi alohida o'rin tutadi.

Shu sababli o'tgan davr mobaynida fermerlik harakati, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini har tomonlama qo'llabquvvatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni kengaytirish kabi yo'nalishlarda bir qator islohotlar amalga oshirildi. Natijada fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy sub'ektlarga aylandi.

O'tkazilgan islohotlar tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 99 foizidan ortig'i fermer va dehqon xo'jaliklari hamda

tomorqa yer maydonlarida yetishtirilishiga erishildi.

Ayni vaqtda amalga oshirilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu sohada erishilgan yutuqlar bilan birga o'z yechimini kutib turgan qator muammo va kamchiliklar ham to'planib qolgan.

Fermer xo'jaliklarining qayta ishlash, saqlash, tayyor mahsulotlarni sotish va xizmatlar ko'rsatish kabi ko'p tarmoqli faoliyatini yo'lga qo'yishda, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatishda, sohada bozor mexanizmlarini shakllantirishda ham muammolar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq



xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni ana shunday muammolarni hal qilish va 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish maqsadida qabul qilindi.

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrishning eng muhim vazifalaridan biri iqtisodiy o'sishni jonlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratish hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish va ta'minlashning zarur sharti respublika hududlarining investitsion salohiyatini oshirish va ushbu jarayonni muvaffaqiyatli olib borishga hududlarning geografik joylashuvi, tabiiy resurslarning mavjudligi, uning zahirasi, mehnat resurslarning soni, yoshi va malakasi, shuningdek, hududlarda bir necha yillardan beri saqlanib kelinayotgan ixtisoslashuv darajasi, infratuzilmalarning holati kabi bir qancha omillarni inobatga olish asosiy shartlardan hisoblanadi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini tashkil etuvchi ko'rsatkichlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdan maqsad sodir etilgan xo'jalik operatsiyalarini haqqoniy aniqlash hamda soliqqa tortishda qo'llanilayotgan tartibning me'yoriy – huquqiy hujjatlarda keltirilgan talablarga mos kelishini aniqlashdan iborat.

Hisob siyosatida ishlab chiqarish faoliyatisamaradorligi amaldagi va rejadagi xarajatlarni hamda ishlab chiqarish xarajatlarini taqqoslash jarayoni sifatida keltirib o'tiladi.

Sifatni boshqarish xarajatlari auditini o'tkazishda auditor mahsulot sifati uchun sarflangan xarajatlarni aniqlashda yuqorida ta'kidlangan schetlardagi ma'lumotlardan foydalanib o'z ishini tezda tugatishga erishadi va bunday xarajatlarning korxonada tutgan o'zni yuzasidan maqbul qarorga keladi.

Mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda sarflanadigan xarajatlar jumladan, asosiy xarajatlardan biri hisoblangan sotib olinadigan xom ashyoni tanlay bilish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida saqlash va qayta ishlash jarayonida undan tejab-tergab foydalanishga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Chunki, ayrim mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarida mahsulot tannarxining asosiy qismini unga sarflangan xom ashyo va qo'shimcha yarim tayyor mahsulotlar tashkil etadi.

Bundan tashqari, «Mahsulot (ish va xizmat)lar tan -narxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi t o'g'risidagi Nizom»da ishlab chiqarish va davr xarajatlarning tarkibi, tasniflanishi hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi ko'rsatib berilgan.

Unga muvofiq, barcha xarajatlar quyidagi tartibda guruhlanadi:

- mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, lekin davr xarajatlari tarkibiga kiritiladigan xarajatlar;
- 9600-«Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar» schetlarida hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
- 9720-«Favquloddagi zararlar» schetida hisobga olinadigan favquloddagi zararlar.



Ma'lumki, boshqaruv hisobi schetlar rejasini ishlab chiqish, mazkur schetlarning o'zaro bog'liqligini ifodalash korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etishning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya- xo'jalik faoliyatini schetlar rejasini va uni o'zlashtirish bo'yicha Yo'riqnoma» nomli 21-sonli milliy standarti amal qilmoqda. Ushbu schetlar rejasini 9 ta bo'lim, 249ta balans va 14ta balansdan tashqari schetlardan iborat. Ularda moliyaviy va boshqaruv hisobida sodir bo'ladigan xo'jalik muomalalarini buxgalteriya yozuvlarida aks ettirishning umumiy tartibi bayon etilgan.

Korxonalarda boshqaruv hisobining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishda ular tomonidan ishlab chiqiladigan ichki boshqaruv (segmentar) hisobotlari alohida o'rin tutadi. Bu hisobot shakllari materiallar va butlovchi qismlar zahiralarini to'g'risida, tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha, ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmatlar) to'g'risida, xarid

qilingan qiymatliklar to'g'risida, tayyor mahsulot zahiralarini to'g'risida, sotishlar to'g'risida, pul mablag'lari harakati to'g'risida, debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida hisobot kabilardan iborat bo'ladi. Mazkur boshqaruv hisoboti shakllari korxona rahbariyatini javobgarlik markazlari (bo'linmalari)da moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari harakati to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib boshqaruv hisobining strategiyasi istiqbolda korxona taraqqiyotini belgilovchi loyihalar tahlili, istiqbolni belgilash, byudjetlashtirish, javobgarlik markazlari bo'yicha segmentar hisobotni tuzish, oqilona transfert baholarini o'rnatish va boshqaruv qarorlarini muvofiqlashtirish tizimini ifodalaydi. Ishlab chiqarishda xarajatlar hisobini nazorat qilish va boshqarishda normativ-huquqiy qoidalar va umumiy iqtisodiy strategiyani yaxshi o'zlashtirish, bug'galteriyaning normalariga amal qilish muhim ahamiyatga ega.

References:

1. Akramov E. A. Korxonalarining moliyaviy xolati tahlili. T.: "Moliya". 2004. 402-b.
2. Boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma M.Q. Pardaev, A.X. Shoalimov, I.R. Pardaev, J.I. Isroilov; Toshkent: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005. 336-b. B.107-108.
3. Ergashev.E. "Iqtisodiy va moliyaviy tahlil". - Darslik - T.: Moliya, 2005. -256-b.
4. Савицкая Г.В. Теория анализа хозяйственной деятельности. М.: ИнфраМ, 2006-281с.